

Излаш



Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining iqtisodiy-tahliliy faoliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida

1-ILOVA
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti huzuridagi Istiqbolli xalqaro tadqiqotlar institutining TUZILMASI

2-ILOVA
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti huzuridagi "Xalqaro munosabatlar: siyosat, iqtisodiyot, huquq" jurnali tahririysi" davlat muassasasining TUZILMASI

3-ILOVA
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti huzuridagi "Xalqaro munosabatlar: siyosat, iqtisodiyot, huquq" jurnali tahririysi" davlat muassasasi xodimlarining mehnatiga haq to'lash RAZRYaDLARI

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 17.08.2022 yildagi 453-son

Кучга кириш санаси

18.08.2022

Кўшимча ахборот

◀ Улашиш

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORI

JAHON IQTISODIYOTI VA DIPLOMATIYA UNIVERSITETINING IQTISODIY-TAHLILIIY FAOLIYATINI KUCHAYTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'C'RISIDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti faoliyatini tizimli isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 23-iyulda PQ-330-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti faoliyatini tizimli isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 23-iyulda PQ-330-son qarorining:

11-bandiga muvofiq Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti (keyingi o'rnlarda — Universitet) tuzilmasidagi Xalqaro iqtisodiy va siyosiy tadqiqotlar markazi hamda Xalqaro-huquqiy tadqiqotlar va qiyosiy ommaviy huquq markazi negizida yuridik shaxs bo'lgan Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti huzuridagi Istiqbolli xalqaro tadqiqotlar instituti (keyingi o'rnlarda — Institut) tashkil etilganligi va uning asosiy vazifalari belgilanganligi;

12-bandiga muvofiq Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti huzurida yuridik shaxs bo'lgan davlat muassasasi shaklidagi "Xalqaro munosabatlar: siyosat, iqtisodiyot, huquq" jurnali tahririysi (keyingi o'rnlarda — Tahririyat) tashkil etilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin;

2. Quyidagilar:

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti huzuridagi Istiqbolli xalqaro tadqiqotlar institutining tuzilmasi **1-iovaga** muvofiq;

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti huzuridagi "Xalqaro munosabatlar: siyosat, iqtisodiyot, huquq" jurnali tahririysi (keyingi o'rnlarda — Tahririyat) tashkil etilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin;

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti huzuridagi "Xalqaro munosabatlar: siyosat, iqtisodiyot, huquq" jurnali tahririysi" davlat muassasasi xodimlarining mehnatiga haq to'lash razryadlari **3-iovaga** muvofiq tasdiqlansin.

Universitet rektoriga Kuzatuv kengashi bilan kelishgan holda Institutning tuzilmasiga belgilangan cheklangan umumiy shtatlar soni va mehnatga haq to'lash fondi doirasida tegishli o'zgartirishlar kiritish huquqi berilsin.

3. Belgilab qo'yilsinki:

Institut davlat muassasasi hisoblanadi;

Institutning rahbar va ilmiy xodimlariga Fanlar akademiyasi ilmiy-tadqiqot institutlari rahbar, ilmiy va boshqa xodimlari uchun belgilangan mehnatga haq to'lash va moddiy rag'batlantirish tartibi tatbiq etiladi;

xalqaro hamkorlik va sheriklikka faol jalb etilganligini hisobga olib, Institut ilmiy xodimlariga Universitetning budgetdan tashqari mablag'lari hisobidan 50 foizgacha ustama to'lanishi mumkin;

Institut va Tahririyat faoliyati Davlat budgeti mablag'lari, Universitetning budgetdan tashqari mablag'lari, xo'jalik faoliyati va shartnoma asosidagi xizmatlar ko'rsatishdan tushadigan tushumlar, jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari, grantlar hamda qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladi.

4. Tashqi ishlar vazirligi:

a) bir oy muddatda:

O'zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlardagi diplomatik vakolatxonalarini va konsullik muassasalarini rahbarlari hamda xalqaro tashkilotlari huzuridagi doimiy vakillarini Universitet o'quv jarayoniga jalb qilish bo'yicha yillik reja-grafikni tasdiqlasın hamda kelgusi o'quv yillarida ham tizimli ravishda yillik reja-grafiklarning amalga oshirilishini ta'minlasin;

Universitet tashkil etilganligining 30 yilligini keng nishonlash bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritsin;

manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda o'zları qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni ushbu qarorga muvofiqlashtirsin;

b) buyurtma asosida O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy, tashqi iqtisodiy, xalqaro huquqiy va davlat boshqaruvi faoliyatining ustuvor yo'nalishlari doirasida grant

453-son 17.08.2022. Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining iqtisodiy-tahliliy faoliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida tanlovlari e'lon qilish uchun tematik mavzularni Innovatsion rivojlanish vazirligiga taqdim qilsin.

Bunda Innovatsion rivojlanish vazirligi tegishli buyurtmalarga ko'ra grant tanlovlarini e'lon qilsin hamda ilmiy ekspertiza xulosalariga muvofiq moliyalashtirilishini ta'minlasin.

5. Qadimiy va boy tarixga ega o'zbek davlatchiligining shakllanishi va taraqqiy etishida milliy diplomatiyaning tutgan alohida o'rnni, uning umumjahon tarixiy jarayonlari bilan uzviy bog'liqligini hamda bugungi mustaqil O'zbekiston diplomatiyasining Uchinchi Renessans konsepsiyasini amalga oshirishdagi muhim ahamiyatini keng yoritish maqsadida Universitetda yuridik shaxs bo'limgan "O'zbekiston diplomatiysi tarixi" muzeyi tashkil etilsin.

Universitet 2022-yil 1-oktabrga qadar mazkur muzey faoliyati yo'lga qo'yilishini ta'minlasin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vaziri v.b. V.I. Norov zimmasiga yuklansin.


O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,
2022-yil 17-avgust,
453-son

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil
17-avgustdagi 453-son qaroriga
1-ILOVA

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti huzuridagi Istiqbolli xalqaro tadqiqotlar institutining

TUZILMASI




Xodimlarning umumiy belgilangan cheklangan soni — 26 nafar, shu jumladan, ma'muriy-boshqaruv xodimlari — 7 nafar, ilmiy xodimlar — 19 nafar.

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil
17-avgustdagi 453-son qaroriga
2-ILOVA

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti huzuridagi "Xalqaro munosabatlar: siyosat, iqtisodiyot, huquq" jurnali tahririysi" davlat muassasasining

TUZILMASI



Xodimlarning umumiy belgilangan cheklangan soni — 8 nafar.

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil
17-avgustdagi 453-son qaroriga
3-ILOVA

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti huzuridagi "Xalqaro munosabatlar: siyosat, iqtisodiyot, huquq" jurnali tahririysi" davlat muassasasi xodimlarining mehnatiga haq

to'lash**RAZRYADLARI**

T/r	Lavozim	Shtat birligi soni	Mehnatga haq to'lash razryadlari
1.	Bosh muharrir	1	16
2.	Bosh muharrir o'rinnbosari	1	15
3.	Veb muharrir-dizayner	1	11
4.	Xalqaro iqtisodiy yo'nalish bo'yicha muharrir	1	11
5.	Xalqaro huquq yo'nalishi bo'yicha muharrir	1	11
6.	O'zbek va rus tillari bo'yicha korrektor	1	10
7.	Ingliz tili bo'yicha korrektor	1	10
8.	Referent-ish yurituvchi	1	3
Jami		8	-

(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 18.08.2022-y., 09/22/453/0748-son)

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining iqtisodiy-tahliliy faoliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida

1-ILOVA
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti huzuridagi istiqbolli xalqaro tadqiqotlar institutining TUZILMASI

2-ILOVA
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti huzuridagi "Xalqaro munosabatlar: siyosat, iqtisodiyot, huquq" jurnali tahririylari" davlat muassasasi xodimlarining mehnatiga haq to'lash RAZRYADLARI

3-ILOVA
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti huzuridagi "Xalqaro munosabatlar: siyosat, iqtisodiyot, huquq" jurnali tahririylari" davlat muassasasi xodimlarining mehnatiga haq to'lash RAZRYADLARI